

**BOSHLANG'ICH TA'LIMDA RAQAMLI TEXNOLOGIYALAR
YORDAMIDA TA'LIM SIFATINI OSHRISH**

Nasurulazoda Maftuna Zokirjon qizi

Guliston davlat pedagogika instituti magistri

Annotatsiya: *Mazkur tezisda raqamli texnologiyalarni boshlang'ich ta'lim tizimiga tatbiq etish orqali o'quvchilarning bilim sifatini oshirish, ularning dars jarayonidagi faolligini kuchaytirish, individual yondashuv asosida ta'limni tashkil etish imkoniyatlari tahlil qilingan. Ta'lim jarayonida AKT vositalarining o'rni, interaktiv dasturlar, VR(virtual reallik), masofaviy va gibrid ta'lim shakllari, shuningdek, raqamli resurslarning samarali qo'llanishi yoritilgan.*

Kalit so'zlar: *boshlang'ich ta'lim, raqamli texnologiyalar, innovatsion metodlar, VR(virtual reallik), axborot-kommunikatsiya texnologiyalari (AKT), ta'lim sifati, interaktiv vositalar, mustaqil o'rganish*

KIRISH

XXI asrda raqamli texnologiyalar taraqqiyoti ta'lim sohasida ham tub o'zgarishlarga sabab bo'ldi. Bugungi kunda yosh avlodni raqamli tafakkur, texnologik savodxonlik va zamonaviy bilimlar bilan qurollantirish har qachongidan ham dolzarb masalaga aylandi. Ayniqsa, boshlang'ich ta'lim bosqichi o'quvchilarning asosiy bilim, ko'nikma va malakalari shakllanadigan davr bo'lib, bu bosqichda raqamli texnologiyalarni to'g'ri va maqsadli qo'llash muhim ahamiyat kasb etadi. Hozirgi kunda umumta'lim maktablarida zamonaviy kompyuter texnologiya-laridan foydalanish imkoniyatlarini takomillashtirish, ta'lim jarayonida zamonaviy texnologiyalar imkoniyatlaridan to'laqonli foydalanish eng muhim ko'rsatkich-laridan biri ekanligi yetuk pedagog olimlar tomonidan e'tirof etilganligi xech kimga sir emas.

Mamlakatimizdagi umumta'lim maktablari zamonaviy kompyuter va telekommunikatsiya texnologiyalari bilan jihozlash ishlari jadal suratlarda olib borilmoqda. Bu esa, o'z navbatida, boshlang'ich sinf o'qituvchilarning o'z mehnat



faoliyatlariga yangicha yondashuvlarini talab etadi. Boshlang'ich sinf darslari o'quv jarayoniga yangi texnologiyalarni joriy etilishi, o'qituvchini texnik vositalar tomonidan siqib chiqishiga emas, balki yangicha yondashuv orqali uning vazifasi va rolini o'zgartirib, o'qituvchilik faoliyatini yana-da serqirra, ijodiy va kreativ yondashuvga asoslangan kasbga aylantiradi.

Raqamli vositalar yordamida ta'lim jarayonini samarali tashkil etish orqali o'quvchilarda mustaqil o'rganish, analitik fikrlash, ijodiy yondashuv va muammoli vaziyatlarda to'g'ri qaror qabul qilish kabi muhim ko'nikmalarni shakllantirish mumkin. Shuningdek, bu texnologiyalar o'qituvchining ishini optimallashtiradi, nazorat va baholash jarayonlarini avtomatlashtiradi hamda darslarning interfaolligini oshiradi.

ASOSIY QISM:

Boshlang'ich ta'limda foydalanilayotgan raqamli texnologiyalar quyidagicha tasniflanadi:

Axborot-kommunikatsiya vositalari (AKT): kompyuter, planshet, interaktiv doska, VR(virtual reallik), proyektor, multimedia tizimlari. Elektron o'quv resurslari: elektron darsliklar, video darslar, test dasturlari, interaktiv platformalar. Masofaviy va onlayn ta'lim platformalari: Google Classroom, Zoom, Microsoft Teams, EduPage, Moodle. O'yin shaklidagi ta'lim vositalari: Wordwall, Quizizz, Kahoot, LearningApps.

Raqamli vositalarning qo'llanishi o'quvchilarda quyidagi o'zgarishlarga olib keladi:

- Vizual va eshitish orqali qabul qilishning yaxshilanishi;
- Ta'limga bo'lgan qiziqishning ortishi;
- Faollik va mustaqil fikrlashning shakllanishi;
- Shaxsiylashtirilgan yondashuv imkoniyatlari.

Raqamli texnologiyalarning to'g'ri qo'llanilishi boshlang'ich ta'limda quyidagi ijobiy natijalarni beradi:

- Bilimlarni mustahkamlash: o'quvchilar mavzuni mustaqil ravishda takrorlab, amaliy mashqlar orqali chuqurroq o'zlashtiradi;



-Ko'rgazmalilik va interfaollik: murakkab mavzularni multimedia orqali tushuntirish osonlashadi;

-Tezkor baholash: testlar, onlayn baholash vositalari o'quvchi bilimni real vaqt rejimida tahlil qilish imkonini beradi;

-Ta'limda tenglik: barcha o'quvchilar bir xil sifatdagi raqamli kontentdan foydalanadi.

Bundan tashqari, quyidagi ta'lim platformalari hozirgi kunda juda ommalashgan va jaxon ta'lim standartlariga javob beradi, shunday ekan ushbu platformalardan kengroq foydalanish ta'lim sifatining yaxshilanishiga sabab bo'ladi:

-Google Classroom orqali o'qituvchi o'quvchilarga mustaqil topshiriqlar yuboradi, dars rejalari va resurslarini almashadi, avtomatik baholash tizimi orqali monitoring yuritadi;

-Wordwall platformasida o'quvchilarga mavzuga oid o'yinlar va testlar taqdim etiladi, bu esa o'yin orqali o'rganishga olib keladi.

-Zoom orqali sinfda mavjud bo'lmagan o'quvchilar ham darsga masofadan turib ulanib, jarayonda faol ishtirok etish imkoniga ega bo'ladi.

-STEAM-loyihalar asosida o'quvchilarga amaliy mashqlar beriladi, bu esa texnologiya va ijodkorlikni uyg'unlashtiradi.

XULOSA

Xulosa qilib aytganda, raqamli texnologiyalar boshlang'ich ta'limda nafaqat ta'lim sifatini oshirish, balki o'quvchilarni mustaqil o'rganishga, muammoli fikrlashga va zamonaviy kompetensiyalarni egallashga yo'naltiradi. Pedagogning vazifasi esa — bu texnologiyalarni ongli, maqsadli va samarali ravishda ta'lim jarayoniga integratsiya qilishdan iborat. Zamonaviy boshlang'ich ta'limni raqamlashtirish orqali biz raqobatbardosh, bilimli va kreativ avlodni tarbiyalaymiz.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. O'zbekiston Respublikasi "Ta'lim to'g'risida"gi Qonuni, 2020-yil.
2. Prezidentning 2022-yil 28-fevraldagi PQ-131-sonli qarori — "Raqamli texnologiyalarni ta'lim tizimiga joriy etish chora-tadbirlari to'g'risida".



3. Xodjiev A.A. "Raqamli pedagogika asoslari", Toshkent, 2021.
4. Interaktiv va innovatsion metodlar bo'yicha o'quv qo'llanma, TDPU, 2022.
5. <https://quizizz.com/>,
<https://wordwall.net/>,
<https://classroom.google.com/> — ta'limiy platformalar.